

**OLIV PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA "KOMPOZITSIYA"
FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK NAZARIYA HAMDA BADIY
TA'LIM AMALIYOTIDAGI HOLATINING TAHLILI**

*Xasanova Munisa Ziyodulla qizi,
Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Tasviriy san'at
kafedrasi katta o'qituvchisi.*

ANNOTATSIYA. Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularda ijodiy-kreatik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu muammo, ayniqsa, bevosita ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan fanlarni o'qitishda alohida dolzarblik kasb etadi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, kompetensiya, pedagog, tasviriy san'at, innovatsiya, texnologiya, takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishning, metodika.

**АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА
«КОМПОЗИЦИИ» В ВЫСШИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ И СОСТОЯНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Хасанова Муниса Зиёдулла қизи,
Старший преподаватель ТДПУ им. Низоми.*

АННОТАЦИЯ. При более высокой педагогической подготовке важно, чтобы важно разрабатывать творческие конкурентные конкуренции в формировании и развитии профессиональной компетенции будущих специалистов. Эта проблема особенно актуальна для преподавания предметов, связанных непосредственно с творческой деятельностью.

Ключевые слова: композиция, компетентность, педагог, изобразительное искусство, инновация, технология, совершенствование, совершенствование на основе инновационных технологий, методология.

**ANALYSIS OF THE STATE OF TEACHING THE SUBJECT
«COMPOSITION» IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS AND THE STATE OF ART EDUCATION**

*Khasanova Munisa Ziyodulla qizi,
Senior Lecturer, TDPU named after Nizomi.*

ANNOTATION. With higher pedagogical training, it is important that it is important to develop creative competitive competitions in the formation and development of professional competence of future specialists. This problem is especially relevant for teaching subjects directly with creative activity.

Key words: composition, competence, teacher, visual arts, innovation, technology, improvement, improvement based on innovative technologies, methodology.

Kirish. Tasviriy va amaliy san'at sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimida "Kompozitsiya" faning mazmuni va metodikasi, qo'llaniladigan metodik yondashuvlar, yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlarni jamiyatning ta'limiy ehtiyojlari asosida muntazam tarzda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu borada, shubhasiz, innovatsion texnologiyalarni yaratish, ulardan foydalanishning ilmiy asoslarini yaratish muammoning yechimlaridan biri sifatida e'tirof etilishi

mumkin. Zero, har qanday sohaning barcha komponentlari jamiyat taraqqiyotiga monand tarzda yangilanib, takomillashtirib borishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'kidlash joizki, tasviriy san'at ta'limida "Kompozitsiya" fanini o'qitishda ko'p asrlik xorijiy va mahalliy tajribalar mavjud bo'lib, mazkur fan mazmunini takomillashtirishda qo'llaniladigan har qanday innovatsion texnologiyalarni zamonaviy badiiy ta'lim amaliyotiga joriy etishni tarixiy tajribalarning tanqidiy-tahliliy o'rganish natijalariga asoslanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Ayniqsa, Italiya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi Yevropa mamlakatlarida Leonardo da Vinchi, Ejen Delakrua, Albrext Dyurer, Leon Batista Alberti, K. Van Mander, N. Pussen, U Xogart, Yuon kabi rassom va tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan kompozitsiya va uning qonuniyatlari, tasviriy san'at sohasida mutaxassislar tayyorlashda bu qonuniyatlardan foydalanish texnologiyalari, qonuniyatlarga muvofiq tarzda texnologiya va metodikalarni takomillashtirib borish bosqichlariga oid tarixiy tajribalarning tahlillari zamonaviy sharoitda kompozitsiyani o'qitish mazmunini taokmillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kompozitsiya masalalari pedagogika sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham keng miqyosda tadqiq etilgan. Xususan, S.A. Drozdov pedagogika oliy ta'lim muassasalarining badiiy-grafika fakulteti sirtqi bo'limida tahsil olayotgan 1–2-kurs talabalarining obrazli tafakkurini rivojlantirishda kompozitsiyadan maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqar ekan, kutilgan natijalarga erishish uchun nafaqat muammoning pedagogik va psixologik masalalariga, balki, tarixiy, falsafiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratish lozimligiga ishora qiladi. Jumladan, falsafiy aspekt sifatida rassomning ijod qilish jarayonining bosqichlarida uning obrazli tafakkurini rivojlantirishni ko'rsatgan bo'lsa, tarixiy aspekt sifatida Rossiyada "Kompozitsiya"ni fan sifatida o'qitish tarixini xorijiy tajribalar bilan qiyosiy talqinda taqdim etgan. Bu tadqiqot, avvalo, pedagogik tadqiqot bo'lganligi bois bizni, birinchi navbatda, kompozitsiyani o'qitish jarayonida talabalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik tizimi, uning pedagogik modeli alohida qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarning natijalarini baholashning muhim komponenti – talabalarining kompozitsiya sohasida bajargan ishlarini baholash mezonlari bizning tadqiqotimiz uchun andaza vazifasini o'tadi.

S.A. Drozdovning dissertatsiyasida kompozitsion faoliyat davrida talabalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik hamda metodik jihatlari ishlab chiqilgan. Dissertatsiyaning badiiy pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy qiymati shundaki, dissertant haqli ravishda takidlaganidek, kompozitsiyaning asosiy didaktik vazifasi talabalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Zero, kompozitsion mushohada tafakkurni rivojlantiradi. Tafakkurning barcha turlari, ayniqsa, intellektual va badiiy tafakkur mukammal kompozitsion yechimga ega bo'lgan tasviriy san'at asari yaratishning muhim shartlaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompozitsiya fanining nazariy asoslarini tadqiq etgan olimlar, amaliyotchi rassomlar uning qonuniyatlarini taokmillashtirishda, birinchi navbatda, ta'lim oluvchilarda o'quv materiallari, axborotlarni idrok etishga bo'lgan sensor qobiliyatlar, ya'ni ma'lumotni qabul qilish, idrok etishning ongliligiga alohida e'tibor qaratganlar. Demak, kompozitsiyaga nisbatan amal qilinadigan bu qonuniyat, barcha o'quv fanlari qatori zamonaviy sharoitda ham mazmunan, metodik yondashuv nuqtai nazaridan takomillashtirishning asosiy pedagogik talabalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Masalan, kompozitsiya qonuniyatlarining asosiy komponentlari – ob'ekt (kompozitsiya)ni tasvir yuzasidan to'g'ri joylashtirish (komponovka), kompozitsiya (kartina) qismlarining o'zaro mutanosibliigi hamda muvofiqligi,

rangshunoslik yechimlariga oid qonuniyatlar asrlar davomida amal qilinib kelinmoqda. Shu boisdan ham zamonaviy sharoitda kompozitsiyaning mazmunini takomillashtirishda, avvalo, innovatsion yondashuvlardan foydalanishga ustuvor tarzda ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning o'ziga xosligi uning tur va janrlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Kompozitsiya esa tasviriy san'atning barcha tur va janrlarining ijodiy cho'qqisi sanaladi. Maslan, portret janrida obrazning asosiy parametrlari sifatida insonning fiziologik va anatomik parametrlari muhim rol o'ynaydi. Bu omil Uyg'onish davrining buyuk olimi, muhandisi, ixtirochisi va rassomi Leonardo da Vinchining ijodida yaqqol namoyon bo'lgan. Uning tadqiqotchilik, ixtirochilik va badiiy ijod maktabi turli iurli aspektlarda rivojlantirib borildi. Shu tariqa tasviriy san'atning nazariy asoslari, kompozitsiya qonuniyatlarini o'zlashtirishda turli yo'nalishdagi maktablarning ta'lim tizimlari shakllanib, rivojlanib bordi.

Oliy badiiy pedagogik ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning kompozitsiyaga oid bilimlarini oshirish maqsadida malaka oshirish kurslarida yangi manbalar, jumladan mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan yaratilgan ilmiy-metodik ishlanmalar bilan tanishtirish hamda ulardan amaliy pedagogik faoliyatda foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish ularning kompozitsiya saboqlarini samarali kechishini ta'minlaydi.

Ta'limning raqamli texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini, jumladan oliy badiiy pedagogik ta'limda tasviriy san'at, xususan, kompozitsiyani o'qitish jarayonining didaktik imkoniyatlarini oshiruvchi manba sifatida ahamiyatlidir. Bu, o'z navbatida, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kompyuter savodxonligini oshirishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Kompozitsiyaning yana bir o'ziga xos xususiyati tasviriy san'atning tur va janrlarida o'ziga xoslik kasb etishi bilan izohlanadi. Manzara janrida esa boshqa janrlarda umumiy tarzda qo'llaniladigan perspektiva va planlilik kompozitsiyaning asosiy qonuniyati sifatida ustuvor tarzda qo'llaniladi, ya'ni ob'ekt (tabiat ko'rinishi), undagi buyum, detallarning joylashishi havo va chiziqli perspektiva qonuniyatlariga qat'iy amal qilingan holdi tasvirlanadi.

Ta'kidlab o'tkanimizdek, kompozitsiya qonuniyatlari yillar davomida ishlab chiqilgan hamda tarixan qat'iy qonuniyat sifatida e'tirof etilish jarayonida bir qator yangi shakllarga ega bo'lib bordi. Xususan, bo'lajak rassomlar tomonidan kompozitsiya qonuniyatlarini o'rgatish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatuvchi metod va yondashuvlar muttasil o'zgarib, takomillashib borgan. Tabiiyki, insoniyat tarixidagi rivojlanish tendensiyalari barcha sohalarida, jumladan, tasviriy san'at, xususan oliy pedagogik ta'limda kompozitsiyani o'qitish mazmunini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi. O'z navbatida, yangilik, ya'ni innovatsiyalar qo'llaniladigan texnologiyalarning asosini tashkil etadi.

Talabalarda kompozitsiyaga oid nazariy bilim va amaliy malakalarni takomillashtirishda didaktikaning bosqichma-bosqich rivojlantirish printsipiga amal qilib, har bir bosqichda sifat ko'rsatkichlari ortib borishi uchun qulay muhit o'ziga xos pedagogik shart-sharoitni yuzaga keltirish lozim.

Har bir voqelikni estetik hodisa sifatida idrok etishda talabalarda tahlil qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, konstruksiyalash, transformatsiyalash va yakunda umumlashtirish kompozitsiya yaratishning asosiy shartlaridan biri ekanligini anglash hamda tasviriy faoliyatda unga ongli tarzda amal qilish kompetensiyalarini tarkib topirish.

Kompozitsion faoliyatning yordamchi funktsiya bajaruvchi komponentlari – kuzatish natijalari asosida material to'plash, ulardan kompozitsiya variantlari uchun qoralama, eskizlar va kompozitsiya variantlarini yaratish, bu jarayonda tasviriy san'atning qonuniyatlari va tasviriy-ifodaviy vositalaridan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirib borish. Bularning barchasi didaktik talablar sifatida oliy badiiy pedagogik ta'limda talabalarning kompozitsiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishning asosiy parametrlari hisoblanadi hamda ularga monand mashqlar tizimini ishlab chiqish va ularga mos texnologik yondashuvlarni qo'llash talabalarida kompozitsion faoliyat sifati va samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini tashkil etadi

Xulosa. Kompozitsiyani fan sifatida tizimli hamda mukammal qonuniyatlar asosida o'qitish 17-asrda Bolonyada aka-uka Karrachilar tomonidan badiiy akademiya tashkil etilishi bilan o'zil-kesil yo'lga qo'yildi. Biroq, insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday sohada bo'lganidek, jamiyatning yangi talablari asosida kompozitsiya fani ham muttasil ravishda rivojlantirilib, takomillashtirilib borildi. Bu jarayon, birinchi navbatda, ta'lim jarayonida kuzatildi. Shuning uchun oliy badiiy ta'lim tizimida "Kompozitsiya" fanini o'qitishning mazmunini va qo'llaniladigan metodikalar, pedagogik yondashuvlar, xususan, innovatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirishning ilmiy asoslarini tadqiq qilishning metodologik asoslari sifatida mazkur dissertatsiya mavzusiga oid pedagogik tadqiqotlarning tahliliga ustuvor tarzda e'tibor qaratilishi mummoni yechimining eng ishonchli yo'llaridan biridir.

Materiallarining tahlillariga ko'ra kompozitsiyaga oid kompetentligini rivojlantirishga oid materiallar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan pedagogik talablarga, birinchi navbatda, o'quv materiallarini saralab olishning etakchi printsiplarini aniqlashva ular asaosida amalga oshirilishi lozim. Bu materiallar, eng avvalo belgilangan me'yor va me'zonlarlar asosida talabaga ilmiy va o'quv bilim hamda malakalariga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlashi nazarda tutiladi.

"Kompozitsiya" o'quv fani bo'yicha talabalarning badiiy, ilmiy va o'quv bilimlarini takomillashtirishning eng asosiy bosqichlari aniqlanib, bu jarayonda o'quv faniga oid ilmiy bilimlar tizimida kompozitsiyaga oid qonuniyatlarning tavsiflari, ularni amaliy tasviriy-ijodiy faoliyatda o'zlashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, qo'llaniladigan metodlar, vositalar va yondashuvlar "Kompozitsiya" fani mazmunini mantiqiy anglashga asos bo'luvchi bilimlar majmuasini shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonda "Kompozitsiya" o'quv faniga oid hamda tarixan qo'llanib kelingan nazariyalar, qonuniyatlar zamonaviy sharoitda amal qilinadigan texnologiyalar bilan integrativ tarzda o'zlashtirishni ta'minlash muhim sanaladi. Shuningdek, o'quv materialini tanlab olishda qo'llaniladigan metodik yondashuv asosiy va ikkinchi darajali materiallarni klassifikatsiyalashni nazarda tutishi talab etiladi. Bu qaysi materialni qaysi bosqichda taqdim etish lozim, degan savolga o'ziga xos javob sifatida qabul qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дроздов С.А. Специальные упражнения по композиции как средство образного мышления студентов-заочников 1-2 курсов художественно-графических факультетов педвузов. Дис. ... на соискание ученой степени канд. пед. наук. – М.: 2007

2. Брагина Д.В. Развитие мышления у студентов художественно-графического факультета на занятиях композицией (на материале натюрморта):

Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М.: Про Софт, 2005.

3. Ветрова И.Б. Неформальная композиция: от образа к творчеству. – М.: Ижитса, 2002.

4. Волков Н.Н. Композиция в живописи. – М.: «Искусство», 1977.

5. Гилманова Н.В. Композиция в изобразительном искусстве. – Ташкент: Истиклол нури, 2014.

6. Голубева О.Л. Основы композиции. Учебное пособие. 2-е издание. – М.: «Искусство», 2004.

7. Груздев В.В. Метод освоения некоторых понятий композиции: Преподавание дисциплин на художественно-графических факультетов пединститутов. – Курск: КПИ, 1978.

8. Дагдиян К.Т. Развитие образного мышления средствами декоративности при освоении дисциплины «Композиция» студентами художественно-графических факультетов. – Ростов-на Дону: 2010.